

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

2-son

(mart-aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Ijtimoiy va pedagogik innovatsiyalar davrida “Zamonaviy maktab”larni shakllantirish davr talabi



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- H. Sodiqov 6 Bo'lajak o'qituvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali yo'llari
- Sh. Primov 10 Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari
- L. Xayitov 14 Pedagogik amaliyotda bo'lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish modeli
- X. Qodirov 23 Talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirishning strukturaviy-mazmunli modeli
- H. Islomova 29 O'quvchilarning odob-axloq sifatlarini rivojlantirishda maqol va topishmoqlarning ahamiyati (5-sinf misolida)
- Q. Azizova 32 Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga doir ko'nikmalarini rivojlantirish mezonlari
- F. Umarov 36 Harbiy-kasbiy kompetentlik va harbiy mahoratning umumpedagogik jihatlari
- Sh. Shodmonova 40 O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati (Umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'rgatish misolida)



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- D. Qo'chqarov 45 Matematika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtiruvchi ta'lim jarayonini tashkil qilish usul va uslublari
- G'. Bozorov 49 Matematik mantiq elementlarini talabalarga noan'anaviy o'rgatish usullari
- I. Matyakubov 54 Diplomatya o'qitish metodikasini takomillashtirish: o'rta asrlar Xitoy tarixi misolida



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- J. Rustamov 57 Mutaxassislarni tayyorlashda umumkasbiy fanlarini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari
- M. Nuriddinova 62 Maktabgacha yoshdagi bolalarni harakat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish



TA'LIMDA IQTISODIYOT VA MOLIIYALASHTIRISH

- Sh. Nizamova 67 Ta'limda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish yo'llari (Umumiy o'rta ta'lim muassasalari misolida)



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

- M. Ergasheva 71 Malaka oshirish tizimida xalqaro tajribadan foydalanishning ahamiyati
- M. Shodiyeva 75 Mustaqil ta'lim – o'qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon sifatida

Sherzod PRIMOV,

Jizzax davlat pedagogika instituti,
“Umumiy pedagogika” kafedrası o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari to'g'risida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, muallif, bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo'yicha “O'qituvchining kommunikativ kompetentligi” maxsus fanining mazmunini tahlil qilib bergan.

Kalit so'zlar. Kommunikativ kompetentlik, kommunikativ ko'nikmalar, kasbiy qiziqishlar, motivatsiya, kasbiy muloqot.

В статье представлен обзор теоретико-педагогических основ развития коммуникативной компетентности будущих педагогов. Автором также проанализировано содержание специального предмета “Коммуникативная компетентность учителя” по развитию коммуникативной компетентности будущего учителя.

Ключевые слова. Коммуникативная компетенция, коммуникативные навыки, профессиональные интересы, мотивация, профессиональное общение.

The article presents an overview of the theoretical and pedagogical foundations for the development of communicative competence of future teachers. The author also analyzes the content of the special subject “Teacher’s communicative competence” on the development of the future teacher’s communicative competence.

Key words. Communicative competence, communicative skills, vocational interest, motivation, vocational conversation.

Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Texnikaviy va kasb-hunar ta'limi to'g'risida”gi va “Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risida”gi konvensiyalarida, “Ma'rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to'g'risidagi Bitimida dunyo miqyosida o'qituvchilar maqomini oshirish, xalqaro malaka talablari asosida o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilgan. Jahonda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari hamda talabalarni o'qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, tajriba almashish va ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko'maklashish, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritishga e'tiborni qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda.¹

¹ YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari. // O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri L. Saidova. –T.: Adolat, 2004, – B 19-62.

Respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo'lishi, ularning o'z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish"² oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish globallashtirish jarayoni talablari asosida takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish shartlaridan biri unda insonparvarlik kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Biz aynan pedagogik fanlarning mazmuni bo'lajak o'qituvchi kommunikativ insonparvarlik asosini rivojlantirishga ko'maklashishi mumkin deb hisoblaymiz.

Shuning uchun psixologik-pedagogik tayyorgarlik mazmuni alohida e'tibor predmetiga aylanadi. Pedagogika sohasining davlat ta'lim standartlari, malaka talablarida fanlarni tanlovi, mantiqi, psixologik-pedagogik fanlarni o'rganish izchilligi tamoyillariga taalluqlidir.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika sohasining davlat ta'lim standartlari, malaka talablarida psixologik-pedagogik tayyorgarlik fanlarni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limga taalluqli masalalar, umuman ta'lim falsafasi, o'quv-tarbiya jarayonining insonparvarligi asoslarini ko'rib chiqish zarur. Ayrim masalalar esa texnologiya darajasi bilan cheklangan (o'zaro munosabat texnologiyasi, o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyasi).

Nazoratning turli ko'rinishlarida yetarlicha ko'p joy ajratilgan (tashhis, oraliq, joriy, yakuniy,), ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirishning usullaridan biri sifatida, o'quvchilarning ta'lim va tarbiya olishlari jarayonidagi subyektiv vaziyatlarining namoyon bo'lishi sifatida o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat masalasi ko'rib chiqilmagan.

Shu bilan birga, pedagogik faoliyat muammolari bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar materiallariga asoslanib, aynan o'qituvchi va o'quvchining bevosita pedagogik muloqotida pedagogning kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatleri ham alohida ahamiyat kasb etadi, uning pedagogik vaziyati namoyon bo'ladi, kasbiy ko'nikmalar va malakalar ro'yxati esa deyarli to'liq kommunikativ ko'nikma va malakalardan tashkil topganligini ta'kidlash mumkin.

Shu tariqa, pedagogik fanlarning bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligi va kommunikativ kompetentligining insonparvarlik asosini rivojlantirishdagi mavjud imkoniyatlaridan to'liq hajmda foydalanilmaydi.

Bolaga insonparvarlik kommunikativ yo'nalganlik o'qituvchining har bir shaxsning mavjud ma'naviyligi va noyobligini anglashini ko'zda tutadi. Shuning uchun pedagogika fanlarni o'qitishda asosiy vazifa bo'lajak o'qituvchini o'quvchilarni xolis, o'zi bilan teng subyekt sifatida idrok etishga tayyorlash hisoblanadi.³ Ammo bo'lajak o'qituvchi o'zaro munosabatlardagi haqiqiy tenglik barchaga bir xilda yondashishdan iborat emasligini anglashi lozim.

Asosiy o'rin har bir o'quvchining individualligini ko'ra olish va qadrlashni tarbiyalash, qayg'urish va hamdard bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, boshqacha aytganda,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

³ Бушелова Б.В. Культура общения.– Петропавловск. –1990.

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayonida talaba shaxsining insonparvar kommunikativ rivojlantirish alohida o'rin egallashi kerak.

Pedagogik ta'limning zamonaviy konsepsiyasi asosiy e'tiborni ikkita vazifaga qaratadi. Bu talabada bolaga insonparvarlik, emotsional-qadriyatli yo'nalganlikni rivojlantirish. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, u pedagogning kommunikativ kompetentligi yuqori darajasini va bo'lajak kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Tarbiya nazariyasini inson nazariyasining aniq darajasi sifatida qarash qonuniydir. Uning roli va mavqeyini, qadri va vazifasini tushunish tarbiyani talqin etish, pedagogning bolalar bilan o'zaro munosabati xususiyatlari bilan bog'liqdir.⁴

Ijtimoiy borliqda insonlarning yaratganlaridan boshqa hech nima yo'qdir, shu sababli ham inson ijtimoiy borliqning subyektidir. Ammo yagona o'zi sifatida emas, balki vertikal va gorizontal ijtimoiy aloqalar ishtirokchisi sifatida. Insonning subyektivligi o'zaro munosabatlarda, mazkur o'zaro munosabatlar orqali amalga oshiriladi.⁵

Masalaning bunday qo'yilishi (g'amxo'rlik ko'rsatiladigan bola kim sifatida namoyon bo'ladi) zarurdir, chunki insonga har qanday munosabat ham insonparvarlik hisoblanavermaydi. Insonparvarlik shaxsga nisbatan subyekt sifatida qarashni ko'zda tutadi.⁶

Shu tariqa, mazkur maxsus fanning mazmuni, pedagogika bo'yicha me'yoriy fanlardan ko'ra o'qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta imkoniyatga egadir. Masalan, barcha ko'rib chiqilayotgan mavzularda pedagogning bolalar bilan o'zaro munosabatlarining shaxsga yo'naltirilgan, insonparvarlik aspektlari yetakchi vaziyatni egallaydi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “O'qituvchining kommunikativ kompetentligi” maxsus fanining mazmuni bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligining shartlaridan biri sifatida uning shaxsi kommunikativ kompetentligining insonparvarlik asosini o'zini-o'zi rivojlantirishini rag'batlantirishga bevosita ko'maklashadigan tarzda belgilandi. Pedagogik fanlarni bo'lajak o'qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga bunday yo'nalganligi uning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili ko'rsatishicha, hozirga qadar, o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlari pedagogika fanida, yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur muammoning yechimi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar pedagogik o'zaro munosabatlarining u yoki bu turini o'rnatishning turli jihatlariga qaratilgan:

- mazkur o'zaro munosabatlar buzilishi sabablari;
- ma'lum o'zaro munosabatlar yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyat va manbalarni aniqlash;
- o'qituvchining pedagogik mahorati darajasidan o'zaro munosabatlarga bog'liqlik darajasida o'rnatilish;
- o'qituvchining talaba hayotidagi o'rni va roli o'zaro munosabatlari darajasida bog'liqligi.

O'zaro ta'sirning yagona shakli mavjud bo'lib, so'zsiz, yaqin vaqtlarga qadar, bu o'qituvchi va talabalar muloqotining o'ziga xos xususiyati sifatida xizmat qildi.

Bunday o'zaro hamkorlik qurilishining afzalliklari deb ataladi: bu munosabatlar ni qayta aloqani tashkil etish uchun alohida harakat, asosiy mezonlar, tushunchalar,

⁴ Гусинский Э.Н., Турчанинова Ю.И. Образования личности. – М., 1994.

⁵ Крутецкий В.А. Психология. – М.: Просвещение, 1986. – С.335.

⁶ Крутецкий В.А. Психология. – М.: Просвещение, 1986. – С.335.

tamoyillarni tushunishga “Yagona”, umumiy yondashuv talab etilmaydi, o‘qish vaqtini “Tejash”ga imkon beradi va shunga ko‘ra, “O‘rganilgan bilimlarning sifati”ni tekshirish osonroq kechadi.

Mavzuga doir reja yetarlicha xilma xildir. “Kommunikativ kompetentlik” boshlang‘ich tushunchasidan tashqari talabalarga bolalar bilan muloqot, o‘zaro munosabat sifatida pedagogik faoliyat tushunchasi beriladi, o‘qituvchi shaxsida kommunikativ kompetentligi xususiyati bo‘yicha insonparvarlikning mavjudligi zarurati ko‘rib chiqilib, u bolalar bilan munosabatlarning va pedagog xulqining bunday darajasiga erishishni nazarda tutadi va bunda o‘quvchilar eng katta qadriyat sifatida idrok etiladi.

Bundan tashqari, o‘zaro munosabatlarning subyekt-subyekt (insonparvarlik) kontekstida kasbiy-professional muammolar oldindan javobi ma‘lum bo‘lgan “Topishmoq” sifatida emas, balki talabalar va o‘qituvchilarning kundalik hayot faoliyatlarida sodir bo‘ladigan holda ochiq savollar sifatida taqdim etildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mazkur maxsus fanning mazmuni, pedagogika bo‘yicha me‘yoriy fanlardan ko‘ra o‘qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta imkoniyatga egadir. Barcha ko‘rib chiqilayotgan mavzularda pedagogning bolalar bilan o‘zaro munosabatlarining shaxsga yo‘naltirilgan, insonparvarlik aspektlari yetakchi vaziyatni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YUNESKO xalqaro me‘yoriy hujjatlari. // O‘zbekcha nashrining mas‘ul muharriri L. Saidova. – T.: Adolat, 2004, 19-62b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
3. Бушелова Б.В. Культура общения. – Петропаловск, 1990.
4. Бушелова Б.В. Культура общения. – Петропаловск, 1990.
5. Крутецкий В.А. Психология. – М.: Просвещение, 1986. – С.335.